

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KIMYO SANOATIDA INNOVATSION****FAOLIYATINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH****Bakiyeva Nilufar Bahriddinovna**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va innovatsiyalar Vazirligi

Osiyo Xalqaro universiteti iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistri

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatida innovatsion faoliyatini samarali rivojlantirish borasidagi tahlil hamda natijalar mavjud bo'lib, sohadagi islohotlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, sanoat, innovatsion faoliyat, iqtisodiyot...

Kimyo sanoatiga juda katta mablag' berdik. Energiya samaradorligi jihatidan texnologiyalar yangilandi. Endi bu tarmoq qo'shilgan qiymat beradigan vaqt keldi. Juda katta imkoniyatlar bor. Agar har bir yo'nalish bo'yicha miqdorini, sifatini, narxini joy-joyiga qo'ysak, eksport 5-6 barobar oshadi.

Shavkat Mirziyoyev.

Chindan ham, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda mamlakatimizda muhim ishlab chiqarish, xomashyo va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston kimyo sanoati vatanimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning rivoji uchun qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va eksport salohiyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shibgina qolmay, yurt taraqqiyotini ham yuqori darajaga olib chiqmoqda. Ayni damda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, jahon bozori raqobati keskin o'zgarib tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqorar va jadal suratlar bilan rivojlantrish uchun mutlaqo yangicha yondashish hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqoza etmoqda. Iqtisodiyot globallashuvining yangicha sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgisi ishlab chiqarishning texnologik usuli va ularning butun jamiyat iqtisodiy salohiyatiga ta'siridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Ko'pchilik zamonaviy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar nafaqat jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidagi markaziy bo'g'inni ham ifodalaydi. So'zimizning isboti



sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzolagani tasdiqlab beradi. Zero, ushbu Qaror bilan "O'zkimyosanoat" AJning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda optimallashtirilgan va yangi istiqbolli loyihalar bilan to'ldirilgan, hisoblangan qiymati 12,1 milliard AQSh dollariga teng, shu jumladan, 1,7 milliard AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga 31 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishni nazarda tutuvchi hamda unga qaratilgan 2019-2030 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi ma'qullanishiga erishildi.



Odatda, kimyo sanoati haqida gap ketar ekan, uni og'ir sanoat tarmoqlaridan biri, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlari, jumladan, kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari - ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar, plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, sellyuloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar, kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va boshqalarni ishlab chiqarishini alohida e'tirof etish joiz. chunki, mazkur soha mamlakatimiz xalq xo'jaligida ham juda ahamiyatlidir. O'zbekiston kimyo sanoati ancha yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, hozirgi zamonga mos kimyo mahsulotlarini ishlab chiqariladi, plastmassalar, sun'iy



tola va sintetik kauchuk, lak-bo'yoqlar, kislota va ishqorlar, dori-darmonlar, shuningdek ko'plab kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradi. Har bir sohaning o'z tarixi bo'lgani kabi kimyo sanoatining ham tarixi bor. Xususan, O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoati uzoq rivojlanish tarixiga egadir. Birinchi kimyoviy korxonalar XX asrning 30-yillari boshlarida yaratilgan. Mamlakatning qishloq xo'jaligidagi mineral o'g'itlar va pestitsidlarga bo'lgan talabini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi hududida bir qator yirik kimyoviy korxonalar barpo etildi, ular keyinchalik Markaziy Osiyodagi eng kuchli kimyoviy majmualarni yaratishda mustahkam poydevor bo'ldi.

Hozirgi vaqtda kimyo sanoati mahsulotlariga bo'lgan talab kundan kunga ortmoqda, iqtisodiyotimizning yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham Respublikada bu sanoat tarmog'ini rivojlantirishga juda katta e'tibor berilib, kimyo sanoatini rivojlantirish uchun O'zbekistonda ham Osiyo mamlakatlari singari katta manbalarga tayanilmoqda. Yurtimizda ayniqsa gaz, neft, gaz kondensatlari, elektr quvvati, ko'mir, sanoati va qishloq xo'jaligi chiqindilari, mineral xom ashyolar hamda mehnat resurslari juda ko'pligi quvonarli hol. Bunga misol sifatida „O'z kimyosanoat“ kompaniyasi tarkibida 34 ta korxona, shu jumladan, 4 qo'shma korxona ishlaydi. Shulardan 22 tasi 2002-yilgan buyon ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. Ularning 20 dan ko'prog'i yirik zamonaviy korxonalardir. Bundan tashqari, Chirchiqdagi „Elektr kimyosanoat“ AJ Farg'ona „Azot“ ishlab chiqarish birlashmasi asosiy turdagi azotli o'g'itlar, „Qo'qon superfosfat zavodi“ AJ, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq „Ammofos“ AJda ammosfos, oddiy va ammoniylashgan superfosfat, qumoq ammosfos kabi fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi. Respublikada sulfat kislota ishlab chiqaradigan yirik quvvatlar Olmaliq „Ammofos“ AJ, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq konmetallurgiya kombinatida barpo etilganligi ham kimyo sanoatining asosidir.

Ayniqsa, mazkur sohada 2016-yildan keyin tubdan isloh qilishga kirishildi. Ushbu davrda ishlab chiqarishning ko'payishi va kimyoviy mahsulotlar eksportining oshishining yana bir sababi investitsiyalar edi. Quyida 2016-2021 yillar uchun investitsiyalarni rivojlantirish jadvali keltirilgan.



2016-2021 yillarda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi¹


| 2016-2021 yillarda investitsiyalar rivojlantirish.(mln.doll.) | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| “O‘zkimyo sanoat” AJ | 328,6 | 311,4 | 467,0 | 602,8 | 391,4 | 281,4 |

Jadval ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, 2016-yilda investitsiyalar hajmi 2019-yilga kelib 2 barobarga oshganligini, 2020-yilga kelib esa pandemiya tufayli 2019-yilga nisbatan 2 barobarga pasayganini ko'rishimiz mumkin. Chunki, so'nggi 5 yil ichida resurs va energiya sarfini kamaytirish, shuningdek, boshqa chora-tadbirlar orqali O'zbekiston kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishiga, shuningdek, eksportning sezilarli o'sishiga erishdi. Biroq, bir qator muammolar hali ham hal qilinmagan, xususan eksportni diversifikatsiya qilish va joriy uskunalarni modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Zamonaviy sharoitda O'zbekistonda kimyo sanoatini barqaror rivojlantirish muammosini hal qilish davlatning barcha darajalarida, shu jumladan davlat, sanoat, mintaqaviy darajada va alohida korxonada sanoatni tartibga solishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Chunki, Davlat rahbari ishlab chiqarish va ilm-fan o'rtasida integratsiyani rivojlantirish masalasiga doim alohida e'tibor qaratadi. Shu maqsadda Toshkentning Ulug'bek shaharchasida ilmiy kimyo klasterini tashkil etish ham rejalashtirilgan. Unga ko'ra, 60 gektar maydonda ma'muriy va o'quv binolari, laboratoriyalar, O'zbekiston—Koreya ilmiy markazi, ilmiy xodimlar uchun turar joylar, yotoqxona, amfiteatr, bog' va quyosh elektr stansiyasi barpo etish ko'zda tutilgan. Bu yerda 8 ming nafar talaba tahsil olishi ham mumkin bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 551,1 trln. so'mlik (dastlabki ma'lumotlar bo'yicha) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 105,2 % ni tashkil etgan. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 458,2 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,2



% ini tashkil etdi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sanoat tarmog'i rivojlanishi ijobiy holatda.



Xulosa

o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda yurtimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan kimyo sanoati, uning iqtisodiy rivojlanishiga hamda eksport salohiyatiga katta hissa qo'shib kelayotganligi kimyoviy mahsulotlarga bo'lgan ichki ehtiyojni to'liq qondiradi, bundan tashqari, tashqi bozorga yetkazib berishni dinamik ravishda oshirishga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toxtasinovna, U. D. (2022). Реал сектор тармоқларида кластерларни ташкил этиш ва уларнинг хусусиятлари. world scientific research journal, 3(1), 64-70.
2. Boymirzaev B.J. — O'zbekko'mirl aksionerlik jamiyatini innovatsion faoliyat asosida samarali rivojlantirish/Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. -T.: 2020-yil.
3. Nabieva S.A. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirish. I.f.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat – T.: 2021. B.15.
4. Internet manzillari: Norma.uz, Lex.uz.